INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.4 №5 (2026). MAY
innovativepublication.uz

XURSHID DO‘STMUHAMMAD NASRIDA MUALLIF PUNKTUATSIYASI VA EMOTSIONAL-EKSPRESSIVLIK

Nurmurotov Ilhom Bekmurod o‘g‘li
Turon universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.f.d.
Tel: *+ 998 94 524 62 45*
Maxkamova Dilnavoz Ziyodullo qizi
Turon universiteti Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti
Gmail: maxkamovadilnavoz@gmail.com
Tel: *+ 998 91 953 19 53*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida tinish belgilarining lingvopoetik funksiyalari tahlil qilinadi. Xususan, ko‘p nuqta, undov belgisi, so‘roq belgisi va chiziqchaning badiiy matndagi emotsional-ekspressiv, semantik hamda uslubiy imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot davomida Xurshid Do‘stmuhammad va Usmon Azim asarlaridan olingan misollar asosida punktuatsion vositalarning muallif individual uslubini shakllantirishdagi o‘rni, psixologik holat, ichki kechinma va grafik sukutni ifodalashdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, punktuatsion uzuslarning badiiy matnning estetik ta’sirchanligini kuchaytirishdagi roli lingvopoetik nuqtai nazardan baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, badiiy matn, tinish belgisi, punktuatsiya, ko‘p nuqta, undov belgisi, so‘roq belgisi, chiziqcha, punktuatsion uzus, grafik sukut, emotsional-ekspressivlik, poetik funksiya.*

Annotation. *This article examines the linguopoetic functions of punctuation marks in contemporary Uzbek literary texts. Particular attention is paid to the expressive, semantic, and stylistic potential of ellipses, exclamation marks, question marks, and dashes in artistic discourse. Based on examples selected from the works of Khurshid Dustmuhammad and Usmon Azim, the study reveals the role of punctuation in shaping the author's individual style, conveying psychological states, inner experiences, and the phenomenon of graphic silence. The article also evaluates the significance of non-standard punctuation usage and punctuation deviations in enhancing the aesthetic and emotional impact of literary texts from a linguopoetic perspective.*

Keywords: *linguopoetics, literary text, punctuation mark, punctuation, ellipsis, exclamation mark, question mark, dash, punctuation deviation, graphic silence, emotional expressiveness, poetic function, artistic discourse.*

Badiiy matnlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy adabiy jarayonda hali to‘liq me’yorlashmagan ko‘plab punktuatsion uzuslar va muallifga xos noodatiy qo‘llanishlar faol iste’molda bo‘lib, ular muayyan poetik maqsadni ifodalashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, muallif tomonidan tinish belgilarining an’anaviy me’yorlardan chekinilgan holda qo‘llanishi matnning emotsional-ekspressiv ta’sirchanligini kuchaytirish, poetik ritmni yaratish, ichki kechinmalarni ifodalash hamda badiiy tasvirning estetik qimmatini oshirishga imkon beradi. Shu jihatdan punktuatsion vositalar badiiy matnning mazmuniy va uslubiy yaxlitligini ta’minlovchi muhim lingvopoetik birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Tilning estetik vazifasi eng avvalo badiiy matnda to‘laqonli ro‘yobga chiqadi. Shuning uchun ham badiiy asar tilini tadqiq etishda adabiyotshunoslik va tilshunoslik yo‘nalishlarining o‘zaro integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, poetika, adabiyot nazariyasi, stilistika, lingvopoetika, grammatika va semasiologiya kabi fanlar badiiy matnning estetik mohiyatini ochishda bir-birini to‘ldiradi. Zero, poetik matnda qo‘llangan har bir til birligi ijodkorning badiiy niyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Bu jarayonda tinish belgilarining ham o‘rni alohida bo‘lib, ular matnning nafaqat sintaktik qurilishini, balki uning ohangdorligi, ritmi, emotsional ta’siri va poetik mazmunini shakllantirishda ham faol ishtirok etadi.

Keltirilgan misollarda tinish belgilarining, xususan, ko‘p nuqta va undov belgilarining badiiy matndagi lingvopoetik funksiyalari yaqqol namoyon bo‘ladi. Xurshid Do‘stmuhammad ijodidan olingan birinchi parcha:

“– To‘xtang. Ketmang. Qalblar Allohning iznida-a!..

– ...

– Siz, men yolg‘iz ... feruza osmon ostida...”

Ushbu matnda tinish belgilari semantik va emotsional yuklamani tashuvchi asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Birinchi jumlada nuqta (.) va undov (!) belgisi nutqning keskin, buyruq ohangini va hissiy zo‘riqishini ifodalaydi. Undov belgisi emotsional kuchayishni, ko‘p nuqta esa fikrning to‘liq yakunlanmaganligi, ichki hissiyotning davomiyligi va psixologik pauzani bildiradi. Ayniqsa “Qalblar Allohning iznida-a!..” birligida undov va ko‘p nuqta kombinatsiyasi hissiy portlashdan keyingi ichki sukut va refleksiyani ifodalaydi.

Ikkinchi qatordagi faqat ko‘p nuqtadan iborat replikada esa semantik “bo‘shliq” hosil qilinadi. Bu holat verbal ifoda o‘rnini nolisoniy pauza egallaganini, ya’ni nutqning to‘xtab qolganini ko‘rsatadi. Bunday konstruktsiya psixologik sukut, ichki iztirob yoki so‘zsiz qolgan fikrning grafik ifodasi sifatida talqin etiladi.

Uchinchi jumlada:

“Siz, men yolg‘iz … feruza osmon ostida…”

ko‘p nuqta sintaktik bo‘laklar orasida emotsional va semantik uzilish yaratadi. Bu yerda “yolg‘iz” so‘zidan keyingi pauza subyektning ichki izolyatsiya holatini kuchaytiradi, “feruza osmon ostida” birligi esa estetik tasvirga o‘tishni ta’minlaydi. Natijada matn fragmentar, assotsiativ tafakkur asosida quriladi.

Usmon Azim ijodidan keltirilgan parchada ham ko‘p nuqta va undov belgilarining ekspressiv imkoniyatlari keng qo‘llangan:

“Mehnat intizomi uchun jon kuydirib turgan sodda Muyassar Qodirovna buni payqarmidi! Boqibek-chi… Normurodov… Van Go‘ngmi… O‘sha alkash uch kundan buyon… U oxirigacha gapirolmagan.”

Birinchi gapdagi undov belgisi muallifning ichki keskin munosabatini, emotsional bahosini ifodalaydi. Keyingi gaplarda esa ko‘p nuqta yordamida fikrning uzluksiz parchalanishi, assotsiativ tafakkur oqimi va psixologik beqarorlik berilgan. Ayniqsa “Boqibek-chi… Normurodov… Van Go‘ngmi…” kabi ketma-ket bo‘laklarda ko‘p nuqta har bir nomni alohida semantik markaz sifatida ajratadi va o‘quvchida ichki savol, mulohaza va izlanish hissini uyg‘otadi.

Uchinchi misolda:

“Sizni hamma yaxshi ko‘radi… Ammo siz yolg‘iz meni … …… , xo‘p?”

ko‘p nuqtaning me’yordan ortiq qo‘llanishi punktuatsion uzus (me’yordan chekinish) hodisasini yuzaga keltiradi. Bu yerda nuqtalar ketma-ketligi oddiy grammatik pauza emas, balki kuchaytirilgan psixologik uzilish, emotsional tarqoqlik va fikrning to‘liq ifodalanmasligini bildiradi. Uch nuqta bilan almashtirilsa, matnning ekspressiv intensivligi kamayadi va uning fragmentar xarakteri susayadi.

Shuningdek, ushbu konstruksiyalarda so‘roq belgisi matnning semantik kulminatsiyasini yakunlovchi element sifatida ishtirok etadi. So‘roq intonatsiyasi tushuvchi ohang bilan birga emotsional bosimning pasayishini va ichki dialogning yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Tahlil qilingan misollarda tinish belgilari faqat sintaktik ajratish vositasi emas, balki badiiy matnning semantik intensivligini belgilovchi, emotsional dinamika va psixologik holatni ifodalovchi muhim lingvopoetik komponent sifatida namoyon bo‘ladi.

Keltirilgan dialogik parchalarda tinish belgilarining, xususan, ko‘p nuqta, chiziqcha (defis) va so‘roq belgilarining badiiy matndagi polifunksional xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu belgilar oddiy sintaktik ajratish vositasi emas, balki matnning emotsional-semantik chuqurligini shakllantiruvchi, uning ichki psixologik dinamikasini ifodalovchi muhim lingvopoetik elementlar sifatida xizmat qiladi.

Birinchi segment:

“Iztirobga to‘yingan tuyg‘u – sog‘inch… Sen-u menga umrbod hamroh yo‘ldoshdir – sog‘inch… Qiyomatli do‘stim, inim, singlim, akam… onam – jigargo‘sham – sog‘inch!..”

ushbu parcha ko‘p nuqta va defisning semantik yuklamasini kuchaytiruvchi vosita sifatida qo‘llanishini ko‘rsatadi. Ko‘p nuqta bu yerda fikrning tugallanmaganligi, hissiyotning uzluksizligi va ichki refleksiyaning davomiyligini ifodalaydi. Har bir “sog‘inch” birlikdan keyingi ko‘p nuqta emotsional pauza yaratib, hissiy intensivlikni bosqichma-bosqich kuchaytiradi.

Defis (chiziqcha) esa “Sen-u men”, “onam – jigargo‘sham” kabi konstruktsiyalarda ikki tushuncha o‘rtasidagi semantik va emotsional bog‘liqlikni mustahkamlovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holatda defis faqat grammatik bog‘lovchi emas, balki ikki obraz yoki tushunchaning ruhiy yaqinligini ifodalovchi estetik indikator vazifasini bajaradi.

Dialogik bo‘laklarda berilgan:

“– … ……..”

“…-..?”

“– … … ….. ……..!”

kabi konstruksiyalar esa punktuatsion uzusning (me’yordan chekinishning) eng yorqin namunasidir. Bu yerda ko‘p nuqta kommunikativ bo‘shliqni, ya’ni verbal ifodalanmagan, lekin mazmunan mavjud bo‘lgan fikrni ifodalaydi. So‘roq belgisi esa javobsiz qolgan emotsional savolni bildiradi va matnda psixologik taranglikni kuchaytiradi.

Mazkur holatda nuqtalar sonining ortib borishi semantik intensivlikning gradatsion ko‘rsatkichiga aylanadi. Ya’ni har bir qo‘shimcha nuqta fikrning yanada chuqurlashgan, lekin ifodalanmagan qatlamini anglatadi. Bu esa badiiy matnda “grafik sukut” fenomenini yuzaga keltiradi — ya’ni so‘z o‘rnini belgilar orqali ifodalangan jimlik egallaydi.

Keyingi fragmentda:

“Kel, oqibatli Do‘st…

– …. ……..

– …-..?

– … … …. ……!..”

ko‘p nuqta va defis kombinatsiyasi yanada murakkab semiotik strukturani hosil qiladi. Bu yerda matn dialog shaklida berilgan bo‘lsa-da, u an’anaviy muloqot emas, balki

ichki monolog va ramziy savol-javob tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Ko‘p nuqtalar fikrning fragmentarligini, defis esa mazmuniy juftlik va kontrastni belgilaydi.

So‘nggi jumlada ko‘p nuqta orqali muallifning estetik pozitsiyasi kuchaytiriladi va matnning intonatsion cho‘qqisi shakllanadi. Bu nuqtalar faqat pauza emas, balki badiiy tafakkurning chegaraviy holatini ifodalovchi semiotik belgi sifatida talqin qilinadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan parchalar shuni ko‘rsatadiki, Xurshid Do‘stmuhammad ijodida tinish belgilari nafaqat sintaktik segmentatsiya vositasi, balki emotsional gradatsiya, psixologik sukut va ramziy ma’no yaratishning asosiy lingvopoetik mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi.

Xurshid Do‘stmuhammad ijodiga mansub “Go‘yo ro‘yo” (Uchinchi izhor) qissasi punktuatsion tizimning badiiy matn qurilishidagi yetakchi semiotik birlikka aylanishini yaqqol namoyon etadi. Asarda an’anaviy sintaktik qurilish ikkinchi darajaga tushib, asosiy estetik va semantik yukni tinish belgilarining o‘zi bajaradi. Bu holat zamonaviy lingvopoetika nuqtayi nazaridan “grafik ekspressivlik” yoki “punktuatsion dominanta” sifatida talqin etilishi mumkin.

Qissaning boshlanishi:

– …, …, …

– …, …, ..!

– … … …. ……..!.. (Tamom)

bu yerda verbal komponent deyarli yo‘qolib, uning o‘rnini ellipsis (ko‘p nuqta), vergul va undov belgisi egallaydi. Natijada matn “gap” emas, balki emotsional kodlar tizimi sifatida ishlaydi. Ko‘p nuqta bu o‘rinda oddiy grammatik pauza emas, balki semantik ochiqlik, tugallanmagan fikr va ichki monologning vizual belgisiga aylanadi.

Vergul esa minimal verbal birliklar o‘rtasida ritmik segmentatsiyani ta’minlab, matnni “o‘qiladigan sukut” shakliga keltiradi. Undov belgisi esa ko‘p nuqta bilan hosil bo‘lgan emotsional noaniqlikni kuchaytirib, uni affektiv kulminatsiya darajasiga olib chiqadi.

Asarda ko‘p nuqta markaziy estetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat pauzani bildiradi, balki: fikrning to‘liq ifodalanmasligi, hissiy portlashning ichki bosimi, va o‘quvchi tasavvuriga yuklama berish kabi lingvopoetik funksiyalarni bajaradi. Masalan:

…or

..zor

.ozor

bozor…

bu fragmentda ko‘p nuqta fonetik qisqarish va grafik “eroziya” jarayonini ifodalaydi. So‘zning to‘liq shakldan asta-sekin yemirilishi orqali muallif semantik

transformatsiyani yuzaga keltiradi: “bozor” oddiy leksema emas, balki og‘riq va iztirob qatlamlari bilan bog‘langan metaforik konstruksiyaga aylanadi. Bu hodisa lingvistika nuqtayi nazaridan grafik reduksiya va semiotik zichlashuv deb talqin qilinadi. Asardagi dialoglar ham an’anaviy sintaktik modeldan chiqib, punktuatsion tizimga bo‘ysundirilgan:

– Qani, kep qoling, asalidan op qoling!
– Asal bo‘lsa, sotarmiding, anoyi?!
– Beshik bormi, beshik?
– Sumagi qoldi, opoqi, sumagi!..
– Teri bormi, teri?

Bu parchada: tire – replikalar chegarasini belgilaydi (grammatik funksiya), vergul – nutqning og‘zaki ritmini aks ettiradi (intonatsion funksiya), undov va so‘roq belgisi – kommunikativ impulsni kuchaytiradi (ekspressiv funksiya), ko‘p nuqta – ma’noning ochiqligi va davomiyligini ifodalaydi (semantik funksiya).

Natijada dialog oddiy muloqotdan chiqib, teatrlashgan lingvistik performans darajasiga ko‘tariladi. Bu holat punktuatsiyaning faqat grammatik emas, balki sahnalashtiruvchi (dramatizatsion) vosita sifatida ishlatilayotganini ko‘rsatadi.

“Go‘yo ro‘yo” qissasi punktuatsiyaning an’anaviy me’yoriy funksiyalarini kengaytirib, uni badiiy matnning asosiy strukturaviy va semantik tayanchiga aylantiradi. Asarda: ko‘p nuqta — sukut va cheksizlik, vergul — ritmik bo‘linish, tire — dialogik struktura, undov va so‘roq — emotsional kuch sifatida ishlaydi. Shu jihatdan asar zamonaviy o‘zbek adabiyotida punktuatsion lingvopoetikaning eng yorqin namunalaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Muallif tinish belgilarini oddiy grafik belgilar emas, balki badiiy ma’no ishlab chiqaruvchi semiotik mexanizm darajasiga ko‘taradi.

Xurshid Do‘stmuhammad ijodida ko‘p nuqta (ellipsis) badiiy matnning eng faol lingvopoetik vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Berilgan parchada: – Qop-qora… sharpa… Baland… Betini ko‘rmadim… ko‘p nuqta oddiy grafik belgi emas, balki psixologik pauza, emotsional uzilish va idrokning fragmentatsiyasini ifodalovchi semiotik birlik sifatida xizmat qilmoqda. Bu o‘rinda har bir ko‘p nuqta so‘zlar orasidagi vaqt bo‘shlig‘ini kengaytirib, nutqni “tez aytilgan gap” emas, balki qo‘rquv va hayrat bilan bo‘lingan ichki monolog darajasiga olib chiqadi.

Natijada matn sintaktik jihatdan emas, balki emotsional ritm asosida quriladi. Ikkinchi parcha: Ko‘zi chaman bo‘lib yasangan bog‘da, xayolida esa… ayoli, qizi, o‘g‘li… akasi, opalari, do‘stlari… ustozlari… bu yerda ko‘p nuqta ketma-ket assotsiativ xotira

oqimini ifodalaydi. Har bir ellipsis: ongdagi yangi obrazning paydo bo‘lishini, oldingi tasvirdan uzilish va yangi tasvirga o‘tishni, psixologik “sakrash”ni belgilaydi.

Bu hodisa zamonaviy kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan “mental space shifting” (tafakkur maydonining almashinuvi) sifatida talqin etiladi. Shuningdek, ko‘p nuqta bu yerda enumerativ (sanash) tuzilma o‘rniga ishlaydi, ya’ni vergul yoki bog‘lovchilar bajaradigan vazifani emotsional pauza orqali kuchaytiradi. Natijada sanab o‘tilgan obrazlar oddiy ro‘yxat emas, balki nostaljik xotira zanjiriga aylanadi.

Keltirilgan uchinchi matn: Shizotimiyani o‘qigan, siklotemiya asrorlaridan najot istagan, oqibati esa… paymona poyoniga yetayozgan… bu o‘rinda ko‘p nuqta matnni fragmentatsiyalangan ong oqimi (stream of consciousness) shakliga keltiradi. Fikrlar mantiqiy ketma-ketlikdan chiqib, psixologik assotsiatsiyalar asosida bog‘lanadi.

Ko‘p nuqtalar: fikrning uzilishi, semantik “ochiq qolish” va ichki monologning to‘liq ifodalanmasligi kabi funksiyalarni bajaradi. Bu uslubda matn klassik sintaksisdan voz kechib, psixologik real vaqtni modellashtiradi.

Matnda ko‘p nuqta faqat pauza emas, balki emotsional kuchning oshib borish darajasi (gradatsiya) ni ham ifodalaydi: oddiy nuqta → tugallik, vergul → davomiylik, ko‘p nuqta → noaniqlik va ichki bosim, ketma-ket ellipsis → psixologik portlashga yaqin holat. Masalan: … paymona poyoniga yetayozgan…/… na bu dunyo, na-da…/Petrus-s… shizo-siklotemiya… bu fragmentlarda ko‘p nuqta fikrni tugatmaydi, aksincha uni cheksizlikka ochadi. Natijada o‘quvchi matnni “o‘qimaydi”, balki tasavvur qiladi va to‘ldiradi.

Berilgan parchalarda ko‘p nuqta quyidagi lingvopoetik funksiyalarni bajaradi: psixologik pauza yaratadi; ong oqimini modellashtiradi; xotira fragmentlarini birlashtiradi; emotsional intensivlikni oshiradi; sintaktik tugallikni buzib, semantik ochiqlik hosil qiladi. Shu jihatdan Xurshid Do‘stmuhammad ijodida ko‘p nuqta oddiy punktuatsion belgi emas, balki badiiy tafakkurning asosiy strukturaviy mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xurshid Do‘stmuhammad badiiy matnlarida undov belgisi (!) va uning takroriy hamda kombinatsiyalashgan qo‘llanishi emotsional holatni ifodalashning eng faol lingvopoetik vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Berilgan parchada muallif nafaqat punktuatsion belgilar, balki fonetik cho‘zilish (grafik reduplikatsiya: *ustozzz, ola-a, s-salomlarim-m*) orqali ham hissiy intensivlikni kuchaytiradi. Bu holat zamonaviy tilshunoslikda grafik-intonatsion parallelizm sifatida talqin etiladi, ya’ni yozuvda tovushning cho‘zilishi va tinish belgilarining funksional o‘zaro almashinuvi kuzatiladi.

Matnda kuzatilgan muhim lingvopoetik hodisa shundan iboratki, tovushlarning cho‘zilishi (ustozzz, Viy-y-y, S-salomlarim-m) emotsional yukni bevosita fonetik darajada ifodalaydi. Natijada tinish belgilarining vazifasi qisman reduksiyaga uchraydi, ya’ni: undov belgisi – emotsional signal, cho‘zilgan tovush – emotsional kuchaytiruvchi vosita, ko‘p nuqta – psixologik uzilish, tire – dialogik segmentatsiya o‘zaro kompleks tizim hosil qiladi.

Shu jihatdan matn polifonik emotsional strukturaga ega bo‘ladi. Berilgan misollarda: – Hoy, amaki!.. – Qoching-g!.. – Tog‘a-a-a!!! kabi konstruktsiyalarda undov belgisi va ko‘p nuqta birgalikda ishlatilishi orqali emotsional kuch gradatsiya asosida oshib boradi. Bu yerda: bir undov → oddiy chaqiriq, ko‘p nuqta + undov → davomiy emotsiya, bir nechta undov → kuchli affektiv portlash sifatida talqin qilinadi. Natijada punktuatsiya tizimi oddiy grammatik vazifadan chiqib, psixologik dramatizatsiya vositasiga aylanadi.

Matndagi *ustozzz*, *ola-a*, *S-salomlarim-m*, *Viy-y-y* kabi shakllar grafik jihatdan tovushning cho‘zilishini ifodalaydi. Bu hodisa lingvistikada ikonik yozuv (sound symbolism in writing) deb yuritiladi. Bunda yozuv: tovush uzunligini, emotsional titrashni, nutqdagi uzilish va hayajonni bevosita vizual shaklda ifodalaydi. Shu sababli tinish belgilari va grafik cho‘zilish o‘zaro kompensator munosabatga kirishadi: biri emotsiyani belgilasa, ikkinchisi uni fonetik jihatdan “jonlantiradi”.

Ko‘p nuqta va undov belgilarining kombinatsiyasi matnda quyidagi psixolingvistik jarayonlarni ifodalaydi: kognitiv uzilish (fikrning to‘xtashi) emotsional portlash (affektiv chiqish) xotira va tasavvur faollashuvi o‘quvchi ishtirokining kuchayishi Natijada matn passiv axborot tashuvchi birlik emas, balki interaktiv semiotik maydonga aylanadi. Ko‘p nuqta va undov belgilarining badiiy matndagi qo‘llanilishi ularning faqat grammatik emas, balki lingvopoetik, psixolingvistik va pragmatik funksiyalarini ham namoyon etadi. Ushbu belgilar matnning ritmik tuzilishini shakllantirish, emotsional intensivlikni boshqarish hamda o‘quvchi tasavvurini faollashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan, punktuatsion belgilarni faqat me’yoriy tizim doirasida emas, balki muallif individual estetik tizimining tarkibiy qismi sifatida o‘rganish zamonaviy lingvopoetikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baxriddinova B. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – B. 29.

2. Fitrat A. Tanlangan asarlar (darslik va o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy maqola va tadqiqotlar). Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009. – 336 b.
3. Garrett M. The analysis of sentence production // The psychology of learning and motivation. – New York: Academic press, 1975. – 133 p.
4. Herring P. The Farlex Grammar ook: Complete English Grammar Rules. Copyright © 2016 Farlex International, All rights reserved. 2016. – 1627 p.
5. K.Nazarov. Tinish belgilarining stilistik funksiyalari haqida. Toshkent universitetining ilmiy asarlari. –Toshkent, 1972. 427-ch. – B.82
6. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N., Andaniyozova D. O‘zbek tili me’yorlari (punktuatsiya). – Toshkent: Zamin nashr, 2021. – B. 49-56.
7. Nurmurotov I. O‘zbek tili imkoniyatlaridan amaliy foydalanish masalalari / Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi: Qardu, 2022. – B. 267.
8. Turayeva D. Umumiy va xususiy punktuatsion me’yorlar hamda ularning mantiqiy-grammatik asoslari (ingliz, rus, o‘zbek tili materiallari misolida): Filol. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2023. – 140 b.
9. Хасароков Б.М. Пунктуация абазинского языка: Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Нальчик, 2007. – 23 с.
10. Холмирзаев Ш. Кечирасиз жаноб Карпентер, вақтим зиқроқ / Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. 2000-й, 27-июль. – № 31.
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Punktuatsiya.
12.https://researchedu.org/index.php/rae/article/view/1179.